

PRESS-TUR O‘TKAZILDI



Surxondaryo viloyatidagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi 16 ming 175 km bo‘lib, shundan 2 ming 843 km, ya‘ni, 18 foizi Avtomobil yo‘llari boshqarmasi tasarrufidagi yo‘llar hisoblanadi. Mazkur yo‘llarning 351 kilometri xalqaro ahamiyatdagi, 990 kilometri davlat ahamiyatidagi va 1 ming 502 kilometri mahalliy ahamiyatidagi yo‘llardir. Umumiy yo‘llarning 13 ming 327 km, ya‘ni 82 foizini ichki yo‘llar, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalari tashkil etadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida joriy yilning 9 oyi davomida 298 dona yangi yo‘l belgilari o‘rnatildi, 1 901 dona yaroqsiz holga kelgan yo‘l belgilari yangisiga almashtirildi, 40 ta yo‘nalishlarda dastlabki, yo‘naltiruvchi va masofa ko‘rsatuvchi yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatildi, shuningdek, 700 kvadrat metr yo‘l yotiq chiziqlari chizilib, yangilandi.

Avtomobil yo‘llari texnik holati tahlili va harakat xavfsizligi markazining viloyat hududidagi mutaxassislari tomonidan bu boradagi ishlar davom ettirilib, yangidan qurilayotgan yo‘llarning sifati nazorat qilib borilmoqda.

Xususan, kuni-kecha jurnalist va blogerlar uchun tashkil etilgan press-tur davomida 4R-

105 “Darband-Boysun-Elbayon” avtomobil yo‘lining 5-70 km va 4R-100
“Manguzar-Jarqo‘rg‘on-Bandixon-Oltinsoy-Denov” avtomobil yo‘lining 126-174 km
qismini rekonstruksiya qilish loyihasi bazasiga qilingan tashrifda jahon standarti
talablariga to‘la mos keluvchi yo‘l qurilishi sifatini nazorat qilishda qo‘llaniladigan
texnik asbob-uskunalar hamda sinov-nazorat laboratoriyasi faoliyati bilan ham
tanishildi.